JIZZAX VILOYATI G’ALLAOROL TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 7 - yanvar 4-3-45-Q/22 G‘allaorol tumani hokimligi

G‘allaorol tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli muassasalarga hudud aholisini biriktirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligining 2021 yil 31 maydagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tuman (qishloq)larida joylashgan ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika (filial)lar tibbiyot va boshqa xodimlarining shtat me’yorlari” to‘g‘risidagi tasdiqlangan qo‘shma xati hamda “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning harajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami 2634, 2014 yil 15 dekabr) talablariga muvofiq hamda G‘allaorol tumani tibbiyot birlashmasining 2021 yil 29 dekabrdagi 1302-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Tuman tibbiyot birlashmasining 2021 yil 29 dekabrdagi 1302-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 8-sonli oilaviy poliklinika, 9-sonli oilaviy poliklinika, 10-sonli oilaviy poliklinika, Qoraqo‘yli oilaviy shifokor punkti, G‘o‘bdin oilaviy shifokor punkti, Savruk oilaviy shifokor punkti, Ko‘kbuloq oilaviy shifokor punkti, Istiqbol oilaviy shifokor punkti, Oltinbashoq oilaviy shifokor punkti, Marjonbuloq oilaviy shifokor punkti, Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika, Jarbuloq davolash bo‘limi, Solin davolash bo‘limi va Qo‘ytosh davolash bo‘limi muassasalariga tor doiradagi shifokorlar ko‘rigi uchun tuman hududlari aholisi ilovaga muvofiq biriktirilsin.

3. Hududlarning biriktirilishi munosabati bilan Tuman tibbiyot birlashmasi (X.Saidov), tuman Moliya bo‘limi (M.Turdimuradov)larga belgilangan tartibda ishlarni tashkillashtirsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari G‘.To‘ychiev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими в.в.б **Qo‘chqorov T. T.**

Ғаллаорол туман ҳокимининг
2022 йил 7 январдаги
4-3-45-Q/22-сон қарорига
1-илова

G‘allaorol tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli muassasalarga hudud aholisini biriktirish

Ro‘yxati

T/R	Tibbiyot muassasasi nomi	Biriktirilgan hudud
1	8-son oilaviy poliklinika	Guliston QFY, Tozaurug‘ QFY, Buloqboshi QFY, Oqtom MFY hududlari
2	9-son oilaviy poliklinika	G‘o‘bdin QFY, Moltob QFY, Lalmikor MFY, Marjonbuloq ShFYning bir qismi
3	10-son oilaviy poliklinika	Qipchoqsuv QFY, Jiydali QFY, Korizquduq QFY
4	Qoraqo‘yli oilaviy shifokor punkti	Qashqabuloq MFY
5	Oltinbashoq oilaviy shifokor punkti	Xonimqo‘rg‘on QFY
6	Istiqbol oilaviy shifokor punkti	Mirzabuloq QFY, Mulkush QFY
7	Ko‘kbuloq oilaviy shifokor punkti	Ko‘kbuloq QFY
8	Savruk oilaviy shifokor punkti	Savruk MFY
9	Marjonbuloq oilaviy shifokor punkti	Marjonbuloq ShFY
10	Qo‘ytosh davolash bo‘limi	Qo‘ytosh ShFY
11	G‘o‘bdin oilaviy shifokor punkti	G‘o‘bdin QFY
12	Solin davolash bo‘limi	Qipchoqsuv QFY
13	Jarbuloq davolash bo‘limi	Gulchanbar QFY
14	Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika	Alamli MFY, Do‘stlik MFY, G‘.G‘ulom MFY, Samarqand MFY, Olimlar MFY, Baxt MFY, Ko‘kgunbaz MFY, Sarbazor MFY, Mulkush QFY, Madaniyat QFY